

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING NUTQIY
MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

Suyunova Marjona

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning til birliklari yuzasidan muhim tushunchalar tizimini o'zlashtirishlari, nutqqa, o'qishga, yozishga oid ko'nikma va malakalarni egallashlari muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida, "Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini, nutqiy rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan" deb o'tilgan. Ushbu ilmiy maqola bolalarning nutqiy madaniyatini takomillashtirish xususidagi ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Abstract: It is important for primary education students to master the system of important concepts of language units, to acquire skills and competences related to speech, reading, and writing. It is known that in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", "Primary education includes the basics of literacy, knowledge and skills necessary for general secondary education, speech aimed at shaping its development. This scientific article presents scientific information on improving children's speech culture.

Аннотация: Учащимся начальных классов важно освоить систему важных понятий языковых единиц, приобрести навыки и компетенции, связанные с речью, чтением и письмом. Известно, что в Законе Республики Узбекистан «Об образовании» «Начальное образование включает в себя основы грамотности, знания и умения, необходимые для общего среднего образования, речи, направленной на формирование его развития. В данной научной статье представлены научные сведения о повышении культуры речи детей.

Kalit so'zlar: nutqiy birliklar, interfaol usullar, axloqiy qadriyatlar, nutqiy madaniyat, elektron materiallar...

Ключевые слова: речевые единицы, интерактивные методы, нравственные ценности, культура речи, электронные материалы...

Key words: speech units, interactive methods, moral values, speech culture, electronic materials...

KIRISH

O'quvchilarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashni Nutq madaniyatini shakllantirishsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Nutq madaniyatini o'qitishda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, elektron materiallardan foydalanish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni ta'lim jarayoniga

tadbiq etish muhim ta'limiy ahamiyatga ega.

Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Ana shu ma'naviy va axloqiy qadriyatlar inson tafakkuri, nutqiy madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo'lmaydi. "O'z fikrini mutlaqo mustaqil. Ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin". (I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq ya'ni talaffuz urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tolning tasviriy vositalardan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish va so'zlay olish madaniyatini egallash demakdir.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Mana shunga ko'ra nutq madaniyatini:

1. Tildagi mavjud til hodisasi nomi;
2. Nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi;
3. Madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq normatik tasavvurlarning nomi;
4. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot ob'yekti bo'lgan nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;
5. Nutq madaniyati muammosini tadqi qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan bo'lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko'rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq madaniyati asoslari ham fan sifatida o'z tekshirish ob'yekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti til qurilishi, adabiy til normativlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir.

Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyiligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi elementlarning eskirishi, yangilarining paydo bo'lishini kuzatib qayd etib boradi.

Odam nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi.

Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi. Ichki nutq og'zaki va yozma

nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imoishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab Grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalgam oshiriladi. (monologik, dialogik nutq).

Yozma nutq esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyatlari asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro'yobga chiqadi.

Jonli nutqning ikki qanoti bir-biridan kuch oladi. Bu nutq madaniyatining ikkita ko'rinishidir. Muomala jarayoni ularni puxta bilish, o'zlashtirish va amalda muvaffaqiyatli qo'llashni taqozo etadi. Bu og'zaki va yozma nutq madaniyatini egallashdir. Kimdir og'zaki nutqqa mohir bo'lsa, kimdir yozma nutqqa. Aslida, har ikkalasining ham ustasi bo'lish kerak. Xalq iborasi bilan aytganda, «gapga do'ppi kiygizadigan» so'z ustalarining nutqi kishini o'ziga rom etmasdan qo'ymaydi. Ustozlardan biri shunday degan edi: «Men minbarga chiqsam, o'zimni miltiq o'qtalغان ovchi oldida dag'-dag' titrayotgan quyonga o'xshataman, yozish uchun stolga yaqinlashsam, o'zimni bamisoli arslondek tasavvur qilaman».

Bu og'zaki nutqqa, so'zga chechanligim yo'q, fikrni qog'ozga tushirish va etkazish bobida uquvim yo'q emas, deganidir. Og'zaki nutqning ham, yozma nutqning ham o'z talablari, imkoniyat doirasi bor. Shunday hamkasblarimiz borki, so'z bobida birov oldiga tusholmaydi, hech kimga gap ham, gal ham bermaydi. Lekin, yozish bobida o'z. Ikkita jumlani bir-biriga bog'lab, fikrni qog'ozga tushira olmaydi, umumlashtira olmaydi.

Og'zaki va yozma nutq aslida, bir-birini to'ldiradi, boyitadi. Har ikkala nutqning imkoniyati va qamrovini bilmagan notiq na unisida zo'r, na bunisida. Xo'sh, muomala madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan og'zaki va yozma nutqning farqli jihatlari biri talaffuz, ikkinchisi yozuv bilan ifodalanishidami? Yo'q, albatta.

Og'zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Og'zaki nutq qo'llanish usuliga ko'ra ikki xil bo'ladi: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi kundalik hayotimizda, o'zaro muomala jarayonida ishlatilsa, adabiy so'zlashuv nutqi muayyan shaxslar doirasida tilning me'yoriy mezonlarini qo'llash orqali ro'yobga chiqadi.

Og'zaki nutqda shevachilik ta'siri sezilib turadi. Biz qaysi viloyat, qaysi go'shadan bo'lmaylik, nutqimizda ma'lum muddat yashagan makonimizning so'zlashuviga xos shevaning ta'siri bo'ladi. Bu nutq tovushlarining talaffuzida yoki shevaga xos so'z va iboralarni qo'llashda seziladi. Og'zaki nutq tezkor, avtomatik jarayon bo'lgani sababli o'ylab turish, so'ng so'zda davom etish qiyin. So'zlov va o'ylov bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Boshqacha aytganda, so'zlab turib o'ylaniladi. Og'zaki nutq shaxsiy, individual faoliyatdir. SHuning uchun ham fikriy bayon va nutqiy uslub, ovoz ifodalari

bir-biriga o'xshayvermaydi. Og'zaki nutq so'zlovchining kayfiyati, ruhiyati, tabiatiga hamda vaziyatga, nutqiy a'zolarining sog'lom va normal ishlashiga ham bog'lik. Odanning behol, kasalvand vaqtidagi nutqi bilan sog'lom, ruhan tetik paytidagi nutqi orasidagi farqni sezish qiyin emas. Kishi so'zlayotganda o'z nutqiga yozayotgandagidek etarli darajada e'tibor beravermaydi. Ma'lum bir davrada so'zlayotganida nutqida kamchilikka yo'l qo'yganini o'zi sezib qolsa, nutqning keyingi holati ham ko'ngildagidek bo'lmaydi. Og'zaki nutq o'ziga xos grammatik tuzilishiga va qurilish tartibiga ega bo'ladi. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashinishi, takrorlar, keraksiz unsurlarning bo'lishi kuzatiladi.

Og'zaki nutqdagi ma'no ottenkalari, munosabatdagi tasdiq yoki inkor alomatlari, ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshiriladi. YOzma nutqda esa bu xususiyatlarni ifoda etuvchi boshqa belgilar mavjud. Unda imloviy va punktuatsion normalar muhim rol o'ynaydi.

Yozma nutq, avvalo, u manba. Xohlagan paytda uni qayta o'qish, tuzatish, boshqa so'z va so'z birikmalari bilan almashtirish mumkin. Yozma nutq namunasidagi maqsadni to'la anglash uchun imlo hamda tinish belgilarining xususiyatlarini o'quvchi ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Aks holda, matn zavqu shavqidan bebahra qolinadi.

Nutqni yozma ravishda bayon etish qadimdan qo'llanib kelingan. Munshiyalar, kotiblar va allomalar bu san'atni yuqori darajaga ko'targanlar. Yozma va og'zaki nutqning jilosi tafakkur mashqlaridir. Shu haqda so'z yuritib, professor Nusratillo Jumaev yozadi: «yozma nutq bilan shug'ullanmagan notiq nutqining rivoji sust, sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so'z boyligi, ifoda imkoniyatlari cheklangan bo'ladi».

Og'zaki va yozma nutqning o'zaro bog'liqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida muhim ham muqimdir. Davraga chiquvchi notiq demoqchi bo'lgan maqsadini to'la bo'lmasa-da, xomaki tarhini qog'ozga tushirib rejalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish yoki aytmalik haqidagi chizgilar notiq so'zlayotgan paytda ham uning ko'z oldida xuddi qog'ozdagidek xayoliy suvrati namoyon bo'lib turadi. Aks holda, nutq me'yorini buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Qo'pol aytganda, notiq o'zining fikr tizginini jilovlay olmasdan talmovsirab qolishi mumkin. Yuqorida keltirilgan iqtibosning davomida xuddi shunday ibratomuz fikrlarni o'qiymiz: «Notiqning fikru o'ylari, qalb kechinmalari yozma nutq jarayonida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga etadi. So'ng og'zaki nutqda jamol ko'rsatadi. Og'zaki nutq ham ijod jarayoni. Unda inson favqulodda noyob fikr, g'oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Ularni so'zlab yurib, pishitib sayqal toptiradi va qiyomini quyma qilib yozma nutqida terib yozadi».

Og'zaki nutqning qator vazifaviy ko'rinishlari mavjudki, ular kezi kelganda, yozma nutqqa jilo beradi. Uning ta'sirchanligini oshiradi. Kundalik so'zlashuv nutqi,

lektorlar nutqi, radio va televidenie nutqi, sahna nutqi bularning har biri alohida tadqiqni talab etadi.

Ko‘z, quloq, miya, yurak bu ko‘rish, eshitish, anglash, his etish demakdir. Ularning ro‘yobi til, nutq orqali ikkinchi vujudga, tom ma’noda aytadigan bo‘lsak, ommaga etib boradi. Biz bir-birimizga fikrimizni, tushunchalarimizni nutq orqali etkazib anglatamiz. Ularda tasdiq yoki inkor ma’nosida fikr uyg‘otamiz. SHuning uchun ham allomalar nazdida tilga e’tibor alohida ahamiyat kasb etgan. Hadisi shariflardan birida “so‘zda sehr, she’rda hikmat bor” deyilishi bejiz emas. So‘zning sehrini bilish uchun unga mehr qo‘yish zaruriyatini ham yoddan chiqazmaslik zarur.

Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, so‘z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr etkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Notiqlik, voizlik, ritorika, oratorlik, krasnorechie, xatoba ana shunday san’atdir. Ushbu san’atlar har bir davrda o‘sha zamonning mafkurasiga xizmat qilib kelgan. Turli “izm-izm”lar, har xil mafkuraviy oqimlar undan ustalik bilan foydalanishgan. Shu ma’noda, notiqlikni dudama xanjarga o‘xshatishadi. Ya’ni, u ikki tomoni ham kesuvchi quroldir. Bir tomonida adolat tursa, ikkinchi tomonida adovat. Kim undan qanday foydalanishiga bog‘liq. Demak, voiz va voizlik san’atining sir-asrovlari va mohiyatini chukur bilish kerak. Voiz o‘zi ham so‘zi joiz bo‘lishi uchun chuqur bilim va malakaga, etuk dunyoqarash va saviyaga ega bo‘lishi kerak. Toki, uning har bir so‘zi xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqiga xizmat qilsin.

Hozirgi zamonda xalq qalbi va onggi uchun kurash ketayotgan paytda turli xil usullar bilan o‘z manfaatlarini ifoda etuvchi g‘ayri kuchlar paydo bo‘laveradi. Bularga qarshi chuqur bilim va ma’rifat bilan javob bera olish, voizlik mahorati orqali fikr etkazish san’atini egallash lozim. “Mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan katta kuchga ega” ekanligi “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlanishi bejiz emas. Mafkura, g‘oya birligi ham so‘z bilan. So‘z g‘oya bayrog‘i, mafkura mayog‘i, xulq qaymog‘i, nutq aymog‘idir.

Qanday yosh va qanday kasbda bo‘lishdan qat’iy nazar, har birimiz kishilar bilan nutqiy munosabatda bo‘lamiz – so‘zlaymiz, tinglaymiz, fikrlashamiz. Har kimning o‘z didi, saviyasi, dunyoqarashi, sajiyasi, fe’l-atvori, ko‘rinishi, kiyinishi bo‘lganidek, uning ovozi, so‘zlashish uslubi, til va nutqiy madaniyatni egallash darajasi ham o‘ziga xos.

«O‘zingga qarab kutarlar, so‘zingga qarab kuzatarlar»- degan naql bor. Kishining fahm-farosati va saviyasi ikki og‘iz so‘zidayoq namoyon bo‘ladi. Kishi fikrining aniq, samimiy va ta’sirli etib borishi so‘zlovchining til va uning harakatdagi ifodasi bo‘lgan nutq qoidalarini qanchalik bilishi va amal qilishiga bog‘liq. Shunday ekan, nutqning aniqligi-tafakkurning tiniqligiga daxldor bo‘lsa, talaffuzning aniqligi-nutqning tiniqligiga bog‘liqdir. Notiq nutqining mantiqiy qudrati, ta’sir kuchi, jozibasi ham, aslida shu bilan. Notiq nutqi, voiz va’zi har bir davrlarda, har bir makonlarda joiz bo‘lgani haq.

Demak, nutqiy mahoratni egallashga intilish nutq odobi, aniqrog‘i, til va nutq vositalarini puxta bilishni taqozo etadi. Nazariy ma‘lumotlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashmas ekan, bunga erishish mushkul.

Har qanday so‘zning xosiyati nutqning mohiyati bilan aloqadorgina emas, balki mantiqiy tafakkur mezoni hamdir. Nutq, notiq, mantiq, notqlik atamalarining bir o‘zakdan yasalgani ham bu til birliklarining o‘zaro uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘lishini anglatadi. Biri birisiz ro‘yobga chiqmasligini, biri ikkinchisini taqozo etishini bildiradi.

Talaffuz me‘yorlari. Nutq shaxsiy hodisa. Agar so‘zlovchi adabiy me‘yorlarini kishi egallamagan bo‘lsa yoki o‘z shevasi bergan shaxsiy variantni afzal deb qarasa, uning puxta adabiy me‘yordan cheklanishi mumkin.

O‘zbek tili xususiyat jihatidan uch lahzadan iborat.

Kelishik me‘yorlari. Adabiy tilimizda “kuchli” va “kuchsiz” me‘yorlari bor.

Kuchli me‘yorlar adabiy tilda so‘zlovchi shaxslar tomonidan hamma vaqt amalgam oshiriladi.

Kuchsiz me‘yorlar og‘zaki nutqida ham e‘tibor berilishi oqibatida yuzaga keladi.

O‘zbek tilining qorluq lahjasidagi maxsus shahar shevalarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko‘rsatkichga ega, ya‘ni 2 kelishik uchun ham –ni xizmat qiladi.

Qaratqich-qaralmish aloqasida xoslik ma‘nosi ifodalanishida ba‘zi bir o‘zgacha sharoitlarda qaratqich ko‘rsatkichi ishlatilmaydi. Masalan: O‘zbek tili, shahar kengashi, bahor fasli.

Turli sabablarga ko‘ra kelishik joylarini almashtirib ishlatish, ya‘ni hamma hollarda ham hozirgi zamon o‘zbek tili normalarini buzish hisoblanadi.

Birlarni bee‘tiqod.

Birlarni riyo ko‘rdim.

Turkiy xalqlarning ba‘zilari tilida jo‘nalish kelishigi o‘rnida ayrim hollarda o‘rinpayt kelishigidan foydalanish uchraydi.

Suratda ra‘nosan o‘zing, men muftalo qayda boray?

Egalik qo‘simchasidan foydalanish me‘yorlari.

Egalikning ifodalanmasligi birinchi shaxsga qarashli predmet boshqasi bilan qiyoslanganda ham yuz berishi mumkin. Masalan: Ombizning oti yuz km yo‘lni ham pisand qilmaydi.

Egalikdan foydalanish me‘yorlariga zid holda egalik qo‘shimchasini tushirish hollari og‘zaki nutqda ko‘zga tashlanmoqda. Masalan: mehnatkashlar tovushi.

Til ham og‘zaki, ham yozma nutq shaklida reallashadi, yashaydi, nutq madaniyati bu har ikki shaklni ham nazarda tutadi. Tilning bu ikki shakli barcha tasviriy tilshunoslik fanlarida o‘rganiladi, ngunday ekan, nutq madaniyati bu fanlar bilan bevosita munosabatdadir. To‘g‘rirog‘i, nutq madaniyati fonetika, orfoepiya, orfografiya,

leksikologiya, leksikografiya, morfologiya, sintaksis, semantika, uslubiyat kabi barcha tasviriy tilshunoslik fanlariga asoslangan holda ish ko‘radi. Nutkdagi kommunikativ sifatlarning yuzaga kelish mexanizmlarini o‘rganish va baholashda ayni shu fanlarda aniqlangan ma’lumotlarga suyaniladi.

Shu jumladan, har bir o‘qituvchi o‘z nutqi ustida ham mukammal ishlashi zaruriyati tug‘ildi. Barkamol hamda har taraflama yetuk insonni tarbiya qilish uchun o‘qituvchi nafaqat puxta bilimli, balki o‘z fikrini chiroyli, ravon, puxta nutq madaniyati qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila bilish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Elmurodov N. O‘qituvchining nutq madaniyati. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2003.
2. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “O‘zbekiston”, 2003
3. <http://www.ziyo.net.uz>.
4. <http://www.pedagog.uz>